

## VII. ISTE'MOL BOZORI

### CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2022- yilning yanvar-dekabrida chakana tovar aylanmasi 20504,8 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 112,5 foizni tashkil etdi.

#### Xo'jalik yurituvchi subyektlarning mulkchilik shakllari bo'yicha chakana tovar aylanmasi

	<i>mlrd. so'm</i>	<i>2021- yil yanvar-dekabriga nisbatan foiz hisobida</i>	<i>yakunga nisbatan foiz hisobida</i>
<b>Jami</b>	<b>20504,8</b>	<b>112,5</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan mulkchilik shakllari bo'yicha:</i>			
davlat mulki	-	-	-
nodavlat mulki	20504,8	112,5	100,0
undan fuqarolarning xususiy mulki	12762,9	105,2	62,2

Savdo korxonalarining chakana savdo aylanmasi hajmi 2022- yilning yanvar-dekabrida 7742,1 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 125,2 foizni tashkil etgan.

Yakka tartibdagi tadbirkorlikning jami chakana savdo hajmi joriy yilning yanvar-dekabr oylarida 10665,0 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 104,9 foizga o'sdi.

#### 2022- yilning yanvar-dekabrida chakana savdo aylanmasi tarkibi

	<i>mlrd. so'm</i>	<i>2021- yil yanvar-dekabriga nisbatan foiz hisobida</i>	<i>yakunga nisbatan foiz hisobida</i>
<b>Chakana tovar aylanmasi</b>	<b>20504,8</b>	<b>112,5</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>			
savdo korxonalari	7742,1	125,2	37,8
Yakka tartibdagi tadbirkorlik	10665,0	104,9	52,0
<i>shundan: uyushmagan sektor (tashkil etilmagan savdo faoliyati)</i>	2097,7	111,7	10,2

## Uyushmagan savdo tovar aylanmasi



**Tuzlamalar**



**Gullar, o‘simlik va nihol ko‘chatlari** (manzarali va qishloq xo‘jaligi)



**Sut va sut mahsulotlari**



**Tuxum**



**Non va non mahsulotlari**



**Quritilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari** (yong‘oq, bodom, pista va boshqalarni qo‘shgan holda)




**Zirovarlar**

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlama kuzatuvi o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi 991,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosiga (419,2 mlrd. so‘m) to‘g‘ri keldi.



**Tovuq go‘shhti**



**Don mahsulotlari** (mosh, loviya, no‘xat, guruch va boshqalar) mahsulotlari



**Chorva mollari va parrandalar uchun har hil yem-hashaklar**



**Yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari**


**UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI:  
CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI**

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollarini sotuvchi jismoniy shaxslar tanlama kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **1106,0** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi **376,4** mlrd. so'mni, qo'y va echkilar **247,6** mlrd. so'mni, otlar **40,2** mlrd. so'mni, parrandalar **9,5** mlrd. so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quydagi ko'rsatkichlarda o'z aksini topgan:




**Ulgurji savdo tovar aylanmasi**

*Asosiy tarkib, foizda*




**Yirik korxonalar**




**Mikrofirma va kichik korxonalar**

Viloyat bo'yicha 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **4975,2** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **115,0** % ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi **966,0** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **171,1** %), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **4009,2** mlrd. so'mni tashkil etib **6,6** % ga o'sdi.

O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Savdo aylanmasi hajmi va ulushi




Umumiy ovqatlanish sohasining tovar aylanmasi 445,5 mlrd. so'mni tashkil etib 2021- yilning yanvar-dekabriga nisbatan 109,8 foizni tashkil etdi.

Chakana savdo (umumiy ovqatlanish faoliyatini qo'shgan holda) tovar aylanmasi aholi jon boshiga o'tgan yilning shu davriga nisbatan 110,1 foiz bo'lib, 5951,2 ming so'mni tashkil etdi.

2022-yilning yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 20059,3 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 12,4 foizga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 2945,6 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 170,2 %), kichik tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 4457,1 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 107,0 %), Jismoniy shaxslarning tovar aylanmasi 12762,9 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 105,2 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 2097,7 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 111,7 %) tashkil etdi.

**Yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi, (mlrd. so'm)**




Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushiga ega bo'lgan Qarshi shahri (Viloyat bo'yicha jami tovar aylanmasi hajmidagi ulushi 34,7 %), Shahrisabz shahri (7,8 %), Chiroqchi (7,0 %) va Koson tumanlari (6,7 %) chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi 2965,3 mlrd. soʻmni tashkil qilib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 170,1 foizni tashkil etdi. Bu esa umumiy savdo hajmining 14,5 % ulushiga toʻgʻri keladi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga koʻra, 15727,9 mlrd. soʻmni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 109,7 foizni tashkil etdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 85,5 foizga teng kelmoqda.



### Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (jamiga nisbatan foiz hisobida)

2021- yil  
yanvar-dekabr



2022- yil  
yanvar-dekabr



 Yirik korxonalar  
 Kichik korxonalar

**Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalarining  
chakana savdo tovar aylanmasi hajmi**

	<i>yirik korxonalar (mlrd.so‘m)</i>	<i>o‘tgan yilning shu davriga nisbatan, % da</i>	<i>kichik tadbirkorlik (mlrd.so‘m)</i>	<i>o‘tgan yilning shu davriga nisbatan, % da</i>
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>2 965,3</b>	<b>170,1</b>	<b>17 539,5</b>	<b>106,4</b>
<i>shaharlar:</i>				
Qarshi	2 629,6	181,4	4 481,5	108,1
Shahrisabz	36,3	291,0	1 569,0	104,1
<i>tumanlar:</i>				
G‘uzor	10,4	83,3	733,9	106,3
Dehqonobod	6,5	90,2	597,3	100,5
Qamashi	13,9	97,5	1 209,4	102,8
Qarshi	20,7	86,8	648,6	104,3
Koson	47,9	440,8	1 335,6	107,8
Kitob	44,9	111,7	966,0	100,8
Mirishkor	5,8	92,2	665,3	108,2
Muborak	39,9	400,3	504,2	101,2
Nishon	7,7	92,6	719,6	103,9
Kasbi	8,3	93,4	652,4	108,3
Ko‘kdala	-	-	532,5	104,6
Chiroqchi	54,5	140,2	1 383,5	116,5
Shahrisabz	25,9	140,6	580,1	106,9
Yakkabog‘	13,0	70,8	961,1	106,4

2022- yil yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik subyektlarining o‘sish sur‘ati bo‘yicha Chiroqchi (116,5 %), Kasbi (108,3 %) Mirishkor (108,2 %), Qarshi shahri (108,1 %) va Koson tumanida (107,8 %) yuqori darajada bo‘ldi. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 14,5 foizni tashkil etib, yirik korxonalarining eng katta ulushi Qarshi shahrida (37,0 %), Muborak (7,3 %) va Kitob (4,4 %) tumanlarida kuzatildi.